



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Koshifiyning futuvvatga doir maxsus asari yaratilmagan bo'lar edi" [Jabborov 2021: 88, 89]. Ana shunday keng qamrovli va chuqur tahlillardan kelib chiqib, olim Alisher Navoiyning o'zi ham fatiy ekani haqidagi navoiyshunoslikda yangi xulosaga keladi.

Umuman, Nurboy Jabborovning "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasi Alisher Navoiyning irfoniy qarashlari yangicha talqin etilgani, shu paytgacha yaratilgan tadqiqotlardagi fikrlarni takrorlamasligi jihatidan navoiyshunoslik rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan tadqiqot, deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Asadov, Maqsud. "Maoniy ahlining sohibqironi" xususida. /Matnshunos va manbashunos olim Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy anjumani materiallari. II kitob. – Toshkent: Adast poligraf, 2002. – B. 3-7.
2. Dehqonov, Akramjon. Munosib armug'on. //Ma'rifat, 2022-yil 9-fevral.
3. Is'hoqov Yo. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Xalq merosi, 2002.
4. Jabborov, Nurboy. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
5. Sirojiddinov, Shuhrat. Ilmiy haqiqat yog'dusi yoxud yangi davr navoiyshunosligining muhim yutug'i. //Yangi O'zbekiston, 2022 yil 23 aprel.
6. Yusupova, Dilnavoz. Buyuk mutafakkir ijod olamiga yaqinlashuv. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2022 yil 1 yanvar
7. Qobilova, Zebo. Asl o'zanlarga qaytish tadorigi. //Sharq yulduzi, 2022, 12-son. -B.101-102.
8. Karimov, Obitjon. The role of professor Nurboy Jabborov in the development of literary science. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2024. Issue: 11 Volume: 139. Published: 18.11.2024.

O'ZBEK AYOL SHOIRALARI IJODIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI TASVIRLARI

Ashurova Gulbahor Nurullayevna

TDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori,

Fuzuliy nomidagi ilmiy tadqiqot markazi rahbari.

gulbahora777@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/GJMA2475

Annotatsiya. *O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'zbek adabiyotida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy siymosini badiiy talqin etish yangi bosqichga ko'tarildi. Chunki bu davrda milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash bosh masalaga aylandi. Alisher Navoiy adabiyotda ma'naviy-axloqiy kamolotning timsoli sifatida haqli e'tirof etildi. Uning ibratli hayoti, shaxsiyati namuna o'laroq tasvirlandi. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida buyuk mutafakkirga bag'ishlab yaratilgan asarlar ayol shoirlar ijodida o'ziga xos, alohida sahifalarini tashkil etadi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy obrazining mustaqillik davri o'zbek adabiyotidagi ayol shoiralardan Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva va Farida Afro'zning she'rlarida Navoiy obrazining tasvirlari masalasi yoritildi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy obrazi, Navoiy shaxsi tasviri va talqini, mustaqillik davri, non obrazi, Vatan timsoli, she'r, shoir siymosi, buyuk ijodkor, milliy qadriyat.*

IMAGES OF THE IMAGE OF ALISHER NAVAI IN THE WORK OF UZBEKISTAN FEMALE POETS

Abstract. *This article examines the artistic representation of the great thinker Alisher Navoi in Uzbek literature following the country's independence, a period during which the*

realization of national identity and the restoration of national values became central concerns. In this context, Navoi emerged as a symbol of spiritual and moral excellence, with his exemplary life and character serving as a model. The works dedicated to him in post-independence Uzbek literature, particularly those by female poets, constitute a distinctive and significant contribution. The article specifically explores how the image of Alisher Navoi is depicted in the poems of prominent female poets Halima Khudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, and Farida Afro'z, highlighting the unique portrayal of Navoi in the literary works of this period.

Keywords: *the image of Alisher Navoi, the image and interpretation of Navoi's personality, the period of independence, the image of bread, the symbol of the Motherland, poetry, the image of the poet, the great creator, national value.*

Alisher Navoiyning har bir asari, har bir bandi, har bir bayti, hatto har bir misrasida hayot hodisalari shu darajada takrorlanmas tasvirlarga egaki, ular sal kam olti yuz yildan buyon muxlislar qalbidan munosib joy olib keladi. Bugina emas, shoir shaxsiyatining o'zi ham xalqimiz, millatimiz orasida haqli e'tirof tuyg'ulari bilan burkangan. Shunga ko'ra, buyuk mutafakkir asarlarining barcha zamonlarda ijod ahli hamda butun xalqimiz uchun o'ziga xos adabiy-estetik va ma'naviy-axloqiy mezon bo'lib kelayotgani bejiz emas.

Asrlar davomida Navoiyning badiiy siymosini yaratishga intilishlarning ham muntazam jarayon ekanligi yaxshi ma'lum. Mustaqillik davridagi itimoiy-ma'naviy hayot bu jarayonga yanada katta kuch va yangicha ma'nolar qo'shayotgani ham bor gap.

Alohida ijodkorlarning ayrim mavzu va muammolarga boshqalariga qaraganda ko'proq moyil bo'lib qolishi yangi gap emas. Shunga qaramasdan Alisher Navoiy siymosini tasvirdashga kelganida bu boradagi holatning boshqacharoq ekanligini tan olishga to'g'ri keladi. Gap shundaki, Navoiy dahosi oldida bosh egmagan, adib asarlari mutolasidan chuqur huzur tuymagan, bularning qonuniy natijasi o'laroq adib haqida hech bo'lmaganda bitta asar yozshni ko'ngliga tugmagan qalam ahlining o'zi yo'q. Mustaqillik davrining o'zidayoq bir joyga jamlansa, bir necha qalin-qalin jildlarning yuzaga kelishi aniqdir.

Asar mavzusi va shoirona iqtidorning namoyon bo'lish shakllariga oid maxsus ilmiy tadqiqotlar yaratilmagan bo'lsa-da, bu borada anchagina kuzatishlarning o'ziga xos tizimi yuzaga kelganligini ham inkor etmaslik kerak. Bevosita Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratish jarayonida shu muammoga duch kelinadi.

O'zbek adabiyotida sha'ni ulug'langan mutafakkir, buyuk siymolarning birortasiga Alisher Navoiyga bag'ishlangan miqdor va darajadagi asarlar, jumladan, she'rlar bag'ishlangan emas. O'zbek shoirlarining deyarli barchasida Alisher Navoiyga bag'ishlangan she'r mavjud. Ularning ayrimlari bu borada o'zing adabiy mulohaza va e'tiroflarini, Alisher Navoiyga bo'lgan e'tiqod va hurmatlarini ifodasi sifatida bir nazm durdonasi yoki nasriy hikoyasini yozgan bo'lsa, bosha birlari bir-iki kichik hajmli asar doirasida bunday ulkan va mo'tabar niyatni to'la ifoda etish imkonining yo'qligini chuqur anglagani holda mavzu doirasida ko'plab asarlarini, o'rni-o'rni bilan esa she'riy turkumlarini yaratishgan.

Yana bir qiziqarli hodisani qayd etish mumkin. Alisher Navoiyga bag'ishlangan asar mualliflari ijodini kuzatish shu xulosaga olib kelmoqdaki, ular bu buyuk mutafakkir adib hayoti va ijodini tasvirlash uchun o'zlarida juda kata mas'uliyat yukini his etishgan. Ularning birortasi ham mazkur mavzudagi asarni yozishga birdaniga

kirishgan emas. Oybek domla tajribasida bo'lganidek, avval kichikroq va mo'jazroq asarlar, keyingina yirik hajmdagi epik polotnolarga murojaat etilgan.

Yana bir fakt shundan iboratki, hatto tarixiy mavzuda qalam tebratgan yozuvchilarning aksariyati ham birdaniga bu mavzuga kirishmasdan, avval boshqa mavzu va muammolar ustida o'z qalamlarini o'tkirlab olishgan: bu borada tegishli ko'nikma va malakalar, tajriba va ishonchga ega bo'lganlaridan keyingina Alisher Navoiy siymosining kengroq tasviriga bel bog'lashgan.

Navoiyga qaytish – uzluksiz va ilhombaxsh jarayon. Uning davomiyligini o'rganish ham ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Shuning uchun Navoiy yashagan davrdan boshlab bugunga qadar buyuk shoir siymosi badiiy talqin etilgan. Zero, mutafakkir shoir tajribalariga tayanib did, saviya va mahoratni yuksaltirish har bir iste'dod uchun ijodiy muvaffaqiyat garovidir. Chunki Navoiy yashagan davr va bu buyuk shaxs ibratli hayotining jozibasi ham buyuk. Ayni jozibaning muhtalolaridan biri Halima Xudoyberdiyeva bir she'rida shunday yozadi:

Navoiy — non. To'sma. Unga borar yo'ldan qoch,
G'ashlik qilma, to'rt yonni ham yoritarkan toj.
Navoiyga o'zin ursa, urma kofirni,
Axir nonga musulmon-u kofir birday och.

Alisher Navoiy lirikada kimlarga, nimalarga o'xshatilmagan. Uni yulduzga, oyga, quyoshga, mash'alga, nurga tashbeh etishgan. Ammo bungacha hech kim uni nonga qiyoslagan emas. Har qanday haqiqiy she'riyatning milliy ong va tafakkur mevasi ekanligi aniq. Ammo ayni mana shu haqiqiylik uning umuminsoniy ruhini ham ta'min etadi. Non o'zbekning moddiy qadriyatlaridan biri. Biroq u shunday moddiylikki, unda millatning ma'naviyati ham yaxlit holda tajassum topgan. Non haqida xalqimizda ko'plab maqol va matallarning, aytim va udumlarning paydo bo'gani bejiz emas. Shoir mana shu nuqtayi nazarga tayanadi. Shuning uchun ham uning "kofir" so'ziga berayotgan urg'usi milliy va diniy ajratishlarni emas, balki insoniy bag'rikenglikning o'ziga xos ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shoiraning o'ziga xos topildiqlaridan biri xalqimiz tilidagi mashhur iboradan unumli foydalanishda ham namoyon bo'ladi. "O'zini urmoq" ifodasi shiddat bilan harakatlanish, hech nimaga, hech qanday qarshilik va g'ovlarga qaramasdan olg'a intilishning kuchli darajasini anglatadi. Uning ikki ma'noda qo'llanishi keng tarqalgan: ijobiy va salbiy ma'noda. Halima Xudoyberdiyeva uning ijobiy ma'nosini yangi bir ma'naviy sharoit taqozosiga ko'ra qo'llaydi – "Navoiyga o'zini urmoq". Bu ayni paytda shoiraning poetik kashfiyoti ham bo'lib ko'rinadi.

Shoiraning ijodida "non" detali tasodifiy emas. Bu detalni shoir rang-barang qirralari bilan talqin etgan ("Kiyiklar", "Kemalar tikkaga yo'l olsin" kabi she'rlarida). Non poetik detal sifatida Halima Xudoyberdiyevaning ko'pgina she'rlarida faol tasvirlangan. Shunga qaramay, uning Navoiy shaxsiyatiga daxldorligi butunlay o'zgacha. Shoir Navoiy siymosida muhtojlar ehtiyojini to'la qondira oladigan manba, ma'naviy buloq, balki ma'naviy xazinani ko'radi. Navoiyga yaqinlik umidida harakat qilayotgan har qanday muhtoj kishiga yo'l ko'rsatish, Navoiyga yaqinlik yo'llarini topishga yordamlashish darkor. Navoiy milliygina emas, umuminsoniy g'oyalarning ham betakror kuychisi. Shuning uchun ham she'rda "musulmon" va "kofir" tushunchalarining qo'llanilishi tasodifiy emas. Ular birgalikda "hamma" tushunchasini anglatadi. "Och" so'zi ham o'z-o'zidan qo'llangan emas. U qofiya tizimidagi munosib so'z (qoch; toj; och) bo'lishi bilan birgalikda ma'rifat bilan aloqalanib, teran mazmun

ifodasiga xizmat qilgan. Yuksak vatanparvarlik va millatparvarlik ruhiga ega Navoiyning ijodiy anʼanalari keyingi avlod shoirlari asarlarida ham namoyon boʻlmoqda. Navoiy siymosi tasviri qator sheʼrlarda u yaratgan maʼnaviy merosdan faxrlanish tuygʻusini ifoda etadi. Turli avlodga mansub atoqli soʻz sanʼatkorlari Gʻafur Gʻulom, Oybek, Mirtemir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Usmon Azim kabi ijodkorlar Navoiy siymosini iftixor hissi bilan poetik tasvirlagan boʻlsalar, bugungi kun shoirlari Navoiy obrazini yaratishda “nido”, “savol-javob”, “bagʻishlov” kabi xilma-xil shakllardan foydalanayotganini kuzatamiz. Bunday sheʼrlarda Navoiy tilidan avlodlarga ulugʻ mutafakkir, nuroniy zotning oʻgitlari, falsafiy mushohadalari bayon etilsa. Gohida ulugʻ shoir bugungi avlod yoshlarini komillikka chorlovchi, xalqimiz nomi va shonini alqab turuvchi, ruhan madad beruvchi zot qiyofasida gavdalanadi.

Xususan, Navoiy haqidagi sheʼrlar Oydin Hojiyeva ijodini ham boyitib turadi. Shoir vatan va uning qadrini anglash masalasini Navoiy nomi bilan bogʻlaydi:

Ey Vatan, qadringni men
Hazrat Navoiydan soʻray.
“Ming bir kecha”lar elchisi
Qirq mingta roviydan soʻray.

Shoir talqinida “ozodlik” ham Navoiy nomi bilan uyqash. “Alisher Navoiy nidosi” nomli sheʼrida ham falsafiy oʻychanlik, murojaat ruhining ustunligi namoyon boʻladi. Sheʼrda Navoiy nomidan “muhabbatsiz gʻarib qalblar” toʻgʻrisida soʻz boradi. “Suv soʻrayotgan toʻrangʻillar”, qurib borayotgan Amu, “suvsirayotgan suluv ohular”, “dardga giriftor toʻrgʻaylar”, “yetim orzular”, “kaftdagi yonib turgan dunyo” kabi tasviriy ifodalar ortida qanday maʼnolar yashirin? Navoiyning armon-u iztiroblari qatiga qanday dard singdirilgan? Navoiydan meros boʻlib qolgan mehr qayga yashiringan? Nega “Turk Budunni omon saqlagan, oʻq tonglarning koʻksida tugun” yashiringan? Navoiy orzu qilgan avlod qalbi ishqqa, mehr-muhabbatga toʻliq boʻlsa, gunohlar yemas, savoblar ortsa, har koʻngilda ishq yorugʻ qoʻshiq misol aks sadolar bersa, mehr-u muhabbat, ezgulik qalb daʼvatiga aylansa, Navoiy kabi ulugʻlar ruhi taskin topadi. Bu sheʼr ushbu holatning yorqin tasviridir.

Mustaqillik davri sheʼriyatida Navoiy lirikasidan kuchli taʼsirlanish, undagi mazmunni bugungi kitobxon uchun tushunarli tarzda qayta badiiy yaratish jarayoni kuzatiladi. Biz mulohazalarimizni taniqli shoir Farida Boʻtayeva – Farida Afroʻz sheʼri misolida koʻrsatishga harakat qilamiz. U “Yuragingga qil ham sigʻmasa” misrasi bilan boshlanadi. Ushbu namunada mustaqillik davri sheʼriyatidagi Alisher Navoiy obrazining asosiy qirralari jamlangan deyish mumkin.

Shoiraning talqinidagi Navoiy ijodi insoniyatning eng yaqin hamdardi, darddoshi, malhami boʻla oladi:

Yuragingga qil ham sigʻmasa,
Mehrsizlik diling tigʻlasa,
Bu holingdan joning talvasa
Qilsa agar Navoiyga ayt,
Oʻqi kitob, Hazratingga qayt!

U insoniylik, insoniy fazilatlar targʻibi va tarbiyasi, har qanday bezovta va dardli koʻngilga orom va huzur berishning uddasidan chiqadi:

Sotib ketsa eng yaqin doʻsting,
Bitmas boʻlsa hech kamu koʻsting,
Daraxtmisan, qay taraf oʻsding,

Bilmoq bo'lsang Navoiydan so'r,
Do'st topmassan Hazratdan-da zo'r!

Boshi berk ko'chalarning yengib bo'lmas muammolarning yechimi, fojialarning eng dahshatli damlarini ham damini kesadigan taskin va tasalli adib she'riyatida mujassam:

Yo'liqqaning bo'lsa xiyonat,
Uchib ketsa qo'lingdan omad,
Osmon tushib, bo'lsa qiyomat,
Navoiydan topasan panoh,
Hazrat erur holingdan ogoh!

Alisher Navoiy she'riyati alohida kuchli bir saltanat, butun insoniyat suyanishi mumkin bo'lgan qo'rg'on ham shu she'riyatdir. Qolaversa, o'zbekka fikrni tushuntirishda savob va gunoh mafhumlarining o'rne va ahamiyati naqadar buyukligini adiba yaxshi biladi:

Bu saltanat metin qo'rg'onidir,
Unda yashar har kim omondir,
U jannatdir, Eram bo'stondir,
Navoiyni aylaylik tavof,
Hazrat erur eng oliy savob!

Inson muhtoj bo'lgan narslarning barcha-barchasi ham ayni mana shu she'riy qo'rg'onlarda jamlangan:

Magar senga ilm kerakdir,
Duo kerak, tilak kerakdir,
Ishq kerakdir, ko'ngil kerakdir,
Navoiydan toparsan o'zni,
Hazrat aytar ul xolis so'zni!

Navoiy va millat yaxlitligi g'oyasi ham, aniqrog'i millatning Navoiy g'oyalari bilan birgalashib ketishiga umid va ishonch ham ushbu she'rdagi asosiy tayanch nuqtalaridan biri bo'la oladi.

O, yurakka malham Navoiy,
Har g'aribga hamdam Navoiy,
Zarrangizman men ham, Navoiy,
Yagonamsiz, sizgadir ta'zim,
O sultonim, xonim, hazratim!

Ko'rinib turganiday, ushbu she'r mustaqillik davridagi o'zbek navoiynomasning o'ziga xos namunlardan biri bo'lgan. U shu yo'nalishdagi ko'plab she'rlardagi umumiy jihatlarni ancha yorqin, aniq hamda ta'sirchan ifodalab bera olgani bilan boshqalardan ajralib ham turadi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, shoirada tasavvur va ijro o'rtasida juda katta uyg'unlik majud. Bu uyg'unlik shoiraaning ideal va uning ifodasi yo'nalishida ham o'ziga xos tarzda namoyoni bo'lgan. Bu narsa ijodkor idealining naqadar tiniq va aniq tasavvuri bilan uning ifoasi o'rtasida bevosita aloqadorlik borligining yana biri isboti bo'lib xizmat qiladi.

Muallif mahzun bir kayfiyat ifodasi bilan boshlangan she'rining samimiy va bir qadar ko'tarinki holat bilan yakunigacha bo'lgan oraliqda badiiy-estetik mantiqning ipini har doim tarang turishiga erisha olgan. Dastlabki bandlardagi shart ergash gapli qo'shma gaplarning faol ishtiroki, turfa ma'nolarning o'zaro yaqin shakllardagi ifodasi

ta'did san'ati vositasida yuzaga chiqqan bo'lsa, navbatdagi bandda asr san'ati kitobxon (she'rxon)ga da'vat va tasalli sifatida ta'sir ko'rsatadi. Yakundagi nido ham shaxsiy hayrat, ham bevosita Navoiy shaxsiga murojaat, bularning yonida esa ko'zda tutilgan idealning lafziy ifodalaridan iborat bo'lgan ta'didlarning ta'kididan yuzaga kelgan hosiladir.

Bularning barchasi Amir Alisher Navoiy siymosining she'rxon ko'zi o'ngida hazrat siymosiga sayqal beradi, uni bizga yanada yaqinlashtirganday bo'ladi. Bizni Navoiy asarlarini o'qishga chorlaydi!

Alisher Navoiy nafaqat ijodi, balki shaxsiyati va amali bilan ham zamonaviy she'riyat vakillari, o'zbek shoirlari tomonidan namuna sifatida qabul qilindi. Ular ijodida Navoiyning axloqiy fazilatlari, xayrli ishlari, ijod va amal birligiga qat'iy rioya qilgani barkamollik timsoli o'laroq badiiy e'tirof etildi, yangicha ohanglarda yoritildi. Navoiy haqida yaratilgan she'rlarlarda Navoiy shaxsi yoki ijodidan tuyulgan hayrat, buyuk shoir haqidagi bir yorqin tasavvur yoki haqiqatning lirik ifodasi ustuvorlik qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Худойбердиева Ҳалима. Шеърлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.97.
2. Ҳожиева Ойдин. Назокат: шеърлар, дoston, қасида, бадиалар, ўйлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 11.
3. Farida Afro'z. https://t.me/Farida_Afroz
4. Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – Тошкент: Adabiyot, 2022. – 196 б.
5. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007.

NAVOIY G'AZALLARIGA MUQIMIYNING NAZIRA VA TAXMISLARI

Pardayev Qo'ldosh Uzaqovich,

TDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori

kuldashparda@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/FXA07036

Annotatsiya. Maqolada Qo'qon adabiy muhitining zabardast ijodkori Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning yoshligidanoq Alisher Navoiy ijodini katta hurmat va muhabbat bilan o'rganib, she'riyatidan ilhomlangani, ko'plab g'azallariga naziralar bitib, taxmislar bog'lagani, shoir Navoiyning yetti g'azaliga taxmis yozib, betakror badiiyat va teran fikrlar bilan yo'g'rilgan muxammaslar yaratgani haqida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, Muqimiy hajviy asarlar yozishda ham Navoiy asarlaridan ta'sirlangani misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Muqimiy, muxammas, nazira, adabiy muhit, satira, qo'lyozma, shoir, g'azal.

MUQIMI'S COMMENTS AND EVALUATIONS ON NAVAI'S GHAZALS

Abstract. This article examines the profound influence of Alisher Navoi's works on Muhammad Aminkhoja Mukimi, a prominent figure in the literary environment of Kokand. Mukimi, who held Navoi in high regard from his youth, was inspired by his poetry, particularly admiring many of Navoi's ghazals and composing takhmises in response to seven of them. The article draws scientific and theoretical conclusions regarding Mukimi's creation of timeless

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622